

15. Xona qo'shiluvchilari yig'indisi



Yondosh mavzu:
Qashqadaryo viloyati

Sonlarning yoyilmasi,
xonalar,
xona qo'shiluvchilari yig'indisi

1. Qarshi shahrining Qashqadaryo daryosi ustida tarixiy "Amir Temur ko'prigi" bor. Uning uzunligi 122 metr. Unda nechta to'liq yuzlik metr bor va qancha to'liq o'nlik metr bor?



2. Qashqadaryo viloyatining maydoni $28\ 570\ km^2$.
Bu sonni jadvalga yozing. Unda necha yuzlik, o'nlik va minglik bor?

O'n minglar	Bir minglar	Yuzlar	O'nlar	Birlar
10 000	1 000	100	10	1

Xona qo'shiluvchilari yig'indisi – ko'p xonali sonning xona birliklari yig'indisi quyidagi ko'rinishda yoziladi:

$$34\ 792 = 30\ 000 + 4\ 000 + 700 + 90 + 2$$

Ko'rsatma:

Sonni xona qo'shiluvchilari yig'indisi ko'rinishida yozish uchun:



1) uning noldan boshqa har bir raqami uchun qo'shiluvchi tuzing: bu raqamga, sonda undan keyin nechta raqam kelayotgan bo'lsa, shuncha nol yozing;

2) yig'indini shu qo'shiluvchilar bilan yozing.

$$28\ 570 = 20\ 000 + 8\ 000 + 500 + 70.$$

15. Xona qo'shiluvchilari yig'indisi



3. Xona qo'shiluvchilari yig'indisi ko'rinishida yozing.

34 567 290

290 007

560 400 803

5 000 008

150 004

230 000



4. Yig'indini hisoblang. Sonda qanday xona birliklari yo'q?

$$\begin{array}{r}
 5\ 0\ 0\ 0\ 0 \\
 + 4\ 0\ 0\ 0 \\
 \hline
 9\ 0\ 0\ 0\ 0
 \end{array}$$

$$\begin{array}{r}
 9\ 0\ 0\ 0\ 0\ 0 \\
 + 4\ 0\ 0\ 0\ 0 \\
 \hline
 1\ 3\ 0\ 0\ 0\ 0
 \end{array}$$

$$\begin{array}{r}
 8\ 0\ 0\ 0\ 0\ 0 \\
 + 3\ 0\ 0\ 0\ 0 \\
 \hline
 1\ 1\ 0\ 0\ 0\ 0
 \end{array}$$

$$\begin{array}{r}
 1\ 0\ 0\ 0\ 0\ 0\ 0 \\
 - 9\ 0\ 0\ 0\ 0\ 0 \\
 \hline
 1\ 1\ 0\ 0\ 0\ 0\ 0
 \end{array}$$



5. Tenglamalarni yeching. Topilgan ildizlarni o'qing.

$$t - 50 - 600 = 4\ 000$$

$$x - 70 - 300 - 40\ 000 = 500\ 000$$



6. Yulduzlarni kuzatar ekanlar, olimlar 578 ta kichik asteroid va ulardan 134 ta kam katta asteroidni sanashdi. Yana asteroidlardan 376 ta kam kometalarni ko'rishdi. Olimlar jami nechta kosmik jismni sanashgan?



7. Kitob shahridan uncha uzoq bo'Imagan joyda Yer uchun xavfli asteroidlarni qidiradigan rasadxona joylashgan. Amallarni tartibi bo'yicha bajaring va rasadxona qurilgan hudud nomini aniqlang.

$$246 + ((608 - 518) \cdot 7 - 283) - (5 \cdot (124 - 38) - 62)$$

A 630

D 86

K 225

N 368

A 593

Y 347

M 90

A 430

15. Xona qo'shiluvchilari yig'indisi



8. Ifodalar tuzing va ularning qiymatlarini hisoblang.
- 245 soniga 456 va 289 sonlari ayirmasini qo'shing.
 - 876 sonidan 228 va 192 sonlarining yig'indisini ayiring.



9. Blits topshiriq. Hisoblang. Qashqadaryo viloyati markazi Qarshi shahri qadimda qanday nomlangan?

A $278 + 194 + 222$

I $800 - 192 - 108$

U $(375 + 179) - 175$

N $116 + 167 + 333$







S $453 - (109 + 153)$

F $(642 + 118) - 18$

616	694	191	694	742
-----	-----	-----	-----	-----



10. Shakl uchta rangli qismdan tashkil topgan bo'lib, har bir qism to'rtta kubikdan iborat. Sariq qism qanday shaklda bo'lishi mumkin?



11. Matnda uchraydigan sonlarni xona qo'shiluvchilari yig'indisi ko'rinishida yozing.

Qashqadaryoda qishloq xo'jaligi keng rivojlangan. $6\ 800\ km^2$ ga yaqin maydoni ekin ekishga mo'ljallangan bo'lib, shundan $2\ 357\ km^2$ maydonga bug'doy, $4\ 240\ km^2$ ga paxta ekilgan. Qashqadaryo chorvachilikda ham oldingi o'rinnlarda turadi. Yil boshida bu hududda 1 267 700 bosh qo'y va echki bor edi. Ulardan tirik vaznda 219 000 000 kg go'sht, 5 000 000 kg jun olindi.



12. Astronomlar birinchi kun 79 ta yangi asteroidni, ikkinchi kun undan 14 ta kam asteroidni aniqlashdi. Shu ikki kun ichida jami nechta asteroid aniqlandi?